



**TASHKILOT UCHUN MA`LUMOTLAR BAZASINI BOSHQARISH  
TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TAHLIL QILISH**

*Eshqobilov Zaxriddin Shuxrat o'g'li*

*Andijon Mashinasozlik Instituti talabasi*

*Axborot Tizimlari va Texnologiyalari yo'nalishi 2-kurs*

*Andijon, O'zbekiston*

*Telefon raqam: +998 33 608 10 43*

*Email: zaxriddineshqobilov83@gmail.com*

*Ilmiy rahbar: U.Raimov*

*“Axborot texnologiyalari” kafedrasи assisenti*

*Annotatsiya:* Mazkur ishda tashkilot uchun ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimini (MBBT) ishlab chiqish masalasi ko'rib chiqiladi. Loyihaning asosiy maqsadi – tashkilotning faoliyat jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tizimli ravishda saqlash va boshqarish, shuningdek, operatsion samaradorlikni oshirishdan iborat. Loyihada ma'lumotlar bazasini yaratishning bosqichlari, ularning funktsional imkoniyatlari va foydalanuvchi uchun qulay bo'lgan interfeyslarni loyihalash jarayonlari bataysil yoritiladi. Tizimda ma'lumotlarni kiritish, yangilash, o'chirish va izlash imkoniyatlari taqdim etiladi. Shuningdek, ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash va ruxsat darajalarini boshqarish mexanizmlariga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot jarayonida zamонавий dasturlash texnologiyalari va vositalari qo'llaniladi. Xususan, ma'lumotlar bazasi sifatida MySQL yoki PostgreSQL kabi keng tarqalgan tizimlardan foydalanish rejallashtirilgan. Dasturiy ta'minot yaratishda esa Python yoki Java kabi dasturlash tillaridan foydalanish mumkinligi ko'rib chiqiladi. Loyiha natijasida tashkilotning ma'lumotlar oqimi optimallashtiriladi, ish jarayonlarining tezligi va aniqligi oshadi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan



*axborot o‘z vaqtida taqdim etiladi. Ushbu tizim tashkilotning biznes jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu ish ilmiy, texnik va amaliy jihatdan ahamiyatga ega bo‘lib, turli sohalarda faoliyat yurituvchi tashkilotlar uchun muhim yechim bo‘lishi mumkin.*

***Abstract:*** This work considers the development of a database management system (DBMS) for an organization. The main goal of the project is to automate the organization's business processes, systematically store and manage data, and increase operational efficiency. The project details the stages of database creation, their functionality, and the process of designing user-friendly interfaces. The system provides the ability to enter, update, delete, and search data. Attention is also paid to mechanisms for ensuring data security and managing permission levels. Modern programming technologies and tools are used in the research process. In particular, it is planned to use such widespread systems as MySQL or PostgreSQL as a database. The possibility of using programming languages such as Python or Java when creating software is considered. As a result of the project, the organization's data flow is optimized, the speed and accuracy of work processes increase, and the information necessary for making management decisions is provided in a timely manner. This system serves to develop the organization's business processes. This work is of scientific, technical and practical importance and can be an important solution for organizations operating in various fields.

***Абстрактный:*** В данной работе рассматривается разработка системы управления базами данных (СУБД) для организации. Основная цель проекта — автоматизация бизнес-процессов организации, систематическое хранение и управление данными, повышение операционной эффективности. В проекте подробно описаны этапы создания баз данных, их функциональность, а также процесс проектирования удобных для пользователя интерфейсов. Система предоставляет возможность ввода, обновления, удаления и поиска данных.



Также будет уделено внимание механизмам обеспечения безопасности данных и управления уровнями разрешений. В процессе исследования используются современные технологии и инструменты программирования. В частности, в качестве базы данных планируется использовать такие популярные системы, как MySQL или PostgreSQL. При создании программного обеспечения рассматривается возможность использования таких языков программирования, как Python или Java. В результате реализации проекта будет оптимизирован информационный поток организации, увеличится скорость и точность рабочих процессов, а также будет своевременно предоставляться информация, необходимая для принятия управленческих решений. Данная система служит для развития бизнес-процессов организации. Данная работа имеет научное, техническое и практическое значение и может стать важным решением для организаций, работающих в различных сферах.

*Kalit so`zlar: ma'lumotlar bazasi, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (DBMS), tashkilot boshqaruvi, ma'lumotlar modellashtirish, ma'lumotlar tuzilishi, relatsion ma'lumotlar bazasi, SQL, ma'lumotlarni tahlil qilish, foydalanuvchi interfeysi, ma'lumotlarni xavfsizligi, ehtiyojlarni tahlil qilish, foydalanuvchi talablarini o'rGANISH, loyihalash jarayoni, optimallashtirish, katta ma'lumotlar, zaxiralash va tiklash, ma'lumotlarni boshqarish, ma'lumotlar integratsiyasi, tizim me'morchiligi, foydalanuvchi huquqlari boshqaruvi.*

**Kirish:** Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot va global mashhur sharoitida tashkilotlar uchun ma'lumotlar bilan ishlashning samaradorligi ularning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (DBMS) tashkilot ichidagi jarayonlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni to'plash, saqlash va ulardan foydalanishni osonlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu tizimlar tashkilot faoliyatining moliyaviy, boshqaruv, savdo va xizmat ko'rsatish



kabi turli yo‘nalishlarida qo‘llaniladi.Tashkilot uchun ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimini ishlab chiqish jarayoni ko‘plab muhim bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Dastlab tashkilotning ma'lumotlarga bo‘lgan ehtiyojlarini chuqur o‘rganish va tahlil qilish lozim. Maqsadli tizimning tuzilishi, funksionalligi va texnologik imkoniyatlari ushbu ehtiyojlarga mos holda loyihalashtiriladi. Keyingi bosqichlarda ma'lumotlarni strukturaviy tashkil etish, foydalanuvchi interfeysi va tizim xavfsizligini ta'minlash asosiy vazifalar qatorida ko‘rib chiqiladi.

Ushbu mavzuning ahamiyati shundaki, ma'lumotlar bazasini samarali boshqarish tizimi tashkilotning vaqt va mablag‘ resurslarini tejashga, ma'lumotlarga kirish imkoniyatlarini tezlashtirishga, operatsion jarayonlarni optimallashtirishga va axborot xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, tizim orqali ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash jarayonlari yanada osonlashadi, bu esa tashkilotga strategik qarorlar qabul qilishda katta yordam beradi.Mazkur tadqiqotning maqsadi – tashkilot uchun funksional va samarali ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimini ishlab chiqish va tahlil qilishdir. Bu jarayonda zamonaviy texnologiyalar, dasturiy ta'minot yechimlari va optimal ma'lumotlar modellashtirish usullari qo‘llanadi. Tizimni loyihalashda foydalanuvchi ehtiyojlarini hisobga olish, xavfsizlikni ta'minlash, ma'lumotlar integratsiyasi va ishslash samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.Shu bilan birga, loyiha doirasida tashkilotning faoliyatiga mos keluvchi ma'lumotlar bazasini yaratish uchun relatsion bazalar, SQL, katta hajmdagi ma'lumotlarni boshqarish va bulutli texnologiyalar kabi zamonaviy usullar tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot tashkilotlarning operatsion jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qilish bilan birga, ularning barqaror rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bu mavzu nafaqat axborot texnologiyalari sohasi mutaxassislariga, balki tashkilot boshqaruvida ishtirok etuvchi rahbarlar va menejerlar uchun ham dolzarbdir. Chunki ma'lumotlarni boshqarishning samarali tizimi tashkilotning barcha bo‘limlarida tezkorlik va aniqlikni ta'minlaydi hamda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.



**Xulosa:** Tashkilot uchun ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimini ishlab chiqish va tahlil qilish jarayoni, ayniqsa raqamli iqtisodiyot sharoitida, har bir tashkilotning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zaruriy element hisoblanadi. Ma'lumotlar bazasi orqali tashkilotlar o'z faoliyatlarini optimallashtirish, ma'lumotlarni aniq va samarali boshqarish, va qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi nafaqat texnologik, balki menejment va tashkilot boshqaruvi nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Ushbu tizimning muvaffaqiyatli ishlab chiqilishi va joriy etilishi uchun bir qator asosiy omillarni hisobga olish zarur. Dastlab, tashkilotning ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'g'ri aniqlash va bu ehtiyojlarga mos tizimni loyihalash lozim. Ma'lumotlar bazasining strukturasi, foydalanuvchi interfeysi, ma'lumotlar xavfsizligi, integratsiya va optimallashtirish masalalari alohida e'tiborni talab etadi. Tizimning samarali ishlashi uchun foydalanuvchi talablari va tizimning funksional imkoniyatlari to'g'ri muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak. Shuningdek, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi tashkilotning barcha bo'limlari o'rtaida ma'lumotlarning tezkor almashinuvi va ulardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Bu esa operatsion samaradorlikni oshiradi, vaqt ni tejashga va resurslardan optimal foydalanishga imkon beradi. Tizim orqali tashkilotlar nafaqat ichki jarayonlarini boshqarishda, balki tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tezkor javob berishda ham ustunlikka ega bo'ladi. Shu bilan birga, ma'lumotlar xavfsizligi masalasi ham katta ahamiyatga ega. Tashkilotlar uchun ma'lumotlarni himoya qilish, ma'lumotlar buzilishi yoki yo'qolishining oldini olish, va axborot xavfsizligi bo'yicha yuqori standartlarga rioya qilish zarur. Bularning barchasi, o'z navbatida, tashkilotning ishonchlilagini va barqarorligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimini ishlab chiqish va tahlil qilish nafaqat texnologik jarayon, balki tashkilotning umumiyligi boshqaruv va strategik rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu tizim tashkilotlar uchun samarali va ishonchli ishlash imkoniyatlarini yaratib, raqobatbardoshligini oshiradi. Tizimning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va uning samarali ishlashi uchun zamonaviy texnologiyalar, ilg'or



dasturiy yechimlar, tizim xavfsizligi, va foydalanuvchi ehtiyojlarini hisobga olish muhim omillar sifatida qaraladi. Tashkilotlar ushbu tizimi joriy etish orqali o‘z biznes jarayonlarini yanada yaxshilash, ilg‘or texnologiyalar yordamida rivojlanishni davom ettirish va global raqobatda ustunlikka erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**Adabiyotlar:**

1. "Database System Concepts" (by Abraham Silberschatz, Henry F. Korth, S. Sudarshan)
2. "Database Management Systems" (by Raghu Ramakrishnan, Johannes Gehrke)
3. "SQL and Relational Theory" (by C.J. Date) ACM Digital Library va IEEE Xplore kabi ilmiy platformalarda ,